

## YAPON TILINI O`RGANISHDAGI BOSQICHLAR VA JLPT IMTIHONLARIGA TAYYORLANISHDAGI MUHIM JIHATLAR

**Mahmudov Muzaffar Mansurjon o`g`li**

O`zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti Filologiya  
va tillarni o`qitish (koreys tili) yo`nalishi 3 - bosqich talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yapon tilini o`rganishdagi barcha bosqichlar,  
imtihonlar va JLPT imtihoni darajalari haqida ma`lumot berib o`tiladi.

**Kalit so`zlar:** yapon tili, JLPT imtihonlar, daraja, grammatika, lug`at.

Kunchiqar mamlakat Yaponiyaning tili bo`lmish yapon tilining xalqaro  
darajadagi imtihoni JLPT imtihonidir. Yapon tili dunyoda eng o`rganilishi qiyin  
tillardan biridir. Bu tilni o`rganishdagi qiyinchiliklardan biri 3 xil yozuv tizimiga ega  
ekanlidigidir. Bular xiragana, katakana va kanjidir. Mamlakatimizda yapon tilini  
o`rganishga qiziqishi yuqori bo`lgan yoshlar soni ortib bormoqda. Yaponiya bilan  
bo`lgan aloqalar yanada kengaymoqda. Yapon tilini o`rganish qiyinligiga  
qaramasdan, birmuncha qiziqarlidir. Mamlakatimizda Yaponiyaning nufuzli  
universitetlari ochilgan. Bu universitetlarga kirish uchun yapon tilini bilish darajasi  
ya`ni JLPT sertifikatiga ega bo`lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nixongo noryoku siken yoki Japanese-Language Proficiency Test (JLPT) –  
yapon tili ona tilisi bo`lmagan shaxslarning yapon tilini egallaganlik darajasini  
aniqlash maqsadida o`tkaziladigan imtihon. Ta`lim yapon tilida olib boriladigan  
o`quv yurtlariga hujjat topshirish, Yaponiyada ishlash yoki malaka oshirish  
istagidagi talabgorlar uchun. Ilk bor 1984-yilda 15ta davlatda taxminan 7000 nafar  
talabgor ishtirokida o`tkazilgan. 2017-yilda bu imtihonni 81ta davlatda 1 milliondan  
ortiq ishtirokchilar topshirgan.

JLPT imtihonlari darajalari, talablari, ajratiladigan vaqt, baholash tartibi va  
o`tish ballarini bilish yapon tilini o`rganuvchilar uchun juda muhim. Imtihonning har  
bir darjasasi uchun sinovlar uch qismda bo`lib o`tadi: reading, language knowledge  
va listening. Darajaning murakkabligiga ko`ra 1 soat 45 daqiqadan 2 soat 50  
daqiqaqacha vaqt ajratiladi. Baholash 180 ballik tizimda, o`tish bali darajaga qarab  
80 dan 100 gacha. Professional daraja N1 bo`lsa, boshlang`ich daraja esa N5  
hisoblanadi.

**N1 daraja bu: Yapon tilini barcha vaziyat va hollarda tushunish.**

**1)Reading (o`qish):**

Mantiqiy va abstrakt mazmundagi matnlarni, jumladan, har xil mavzulardagi  
badiiy, tanqidiy maqolalarni o`qish, shuningdek, ularning mohiyati va strukturasini  
tushunish;

Turli mavzulardagi chuqur mazmunga ega yozma materiallarni o`qish va muallifning maqsadi to`g`risida atroficha mushohada yuritish.

**2)Language knowledge (til bilish):**

So`z boyligi (vocabulary/grammar) (lug`at/grammatika)

**3)Listening (tinglab tushunish):**

Audioyozuvda odatdagi tezlikda aytilgan fikrlar, jumladan, kundalik so`zlashma, yangilik va ma`ruzalarni tushunish ham ularning g`oyalari, mazmun-mohiyati haqida fikrlay olish;

Topshiriqda berilgan materialning qismlarini tushunish, masalan, odamlar o`rtasidagi munosabatlар, mantiqiy tuzilmalar va asosiy momentlar.

**Vaqt (daqiqa):** Reading va language knowledge – 110, listening – 60.

**Baholash (ball):** har bir qism uchun 60 balldan, jami 180 ball, har bir qism uchun o`tish bali – 19. Daraja uchun umumiyo`tish bali – 100.

**N2 daraja bu: Turli holat va kundalik vaziyatlarda yapon tilini ma'lum darajada tushunish.**

**1)Reading (o`qish):**

Gazeta va jurnal maqolalari, bildirilgan munosabat, taqriz kabi turli mavzular bo`yicha aniq yozilgan materiallarni o`qiy olish, oddiy tanqidiy fikrlarni o`qish va mazmunini tushunish;

Umumiyo`tish bo`yicha yozma ma'lumotlarni o`qish va muallifning maqsadini tushunish.

**2)Language knowledge (til bilish):**

So`z boyligi (vocabulary/grammar) (lug`at/grammatika)

**3)Listening (tinglab tushunish):**

Deyarli odatiy tezlikda og`zaki aytilgan yangiliklar, so`zlashuvlarni tushunish, shuningdek, turli vaziyatlarda aytilgan fikrlarni tushunish va g`oya mazmunini anglash. Berilgan materialdagi asosiy momentlarni hamda insonlar orasidagi munosabatlarni tushunish.

**Vaqt(daqiqa):** Reading va language knowledge – 105, listening – 50.

**Baholash (ball):** har bir qism uchun 60 balldan, jami 180 ball, har bir qism uchun o`tish bali – 19. Daraja uchun umumiyo`tish bali – 90.

**N3 daraja bu: Kundalik vaziyatlarda yaponlarni ma'lum darajada tushunish.**

**1)Reading (o`qish):**

Kundalik mavzularga bag`ishlangan, aniq mazmundagi ma'lumotlarni o`qish va tushunish;

Gazeta maqolalari sarlavhalariga o`xshagan umumiyo`tish ma'lumotlarni tushunish.

Nisbatan murakkab ishlarni o`qish, tushunish uchun yordam beruvchi muqobil iboralar mavjud bo`lsa, mazmunning asosiy mohiyatini tushunish.

**2)Language knowledge (til bilish):**

So`z boyligi (vocabulary/grammer) (lug`at/grammatika)

**3)Listening (tinglab tushunish):**

O`rta tezlikda aytilgan davomli va odatiy so`zlashuvlarni tushunish, mazmunini aniqlash va insonlar orasida munosabatlarni tushunish.

**Vaqt (daqqaq):** Reading – 70, language knowledge uchun 30, listening – 40.

**Baholash (ball):** har bir qism uchun 60 balldan, jami 180 ball, har bir qism uchun o`tish bali – 19. Daraja uchun umumiy o`tish bali – 95.

**N4 daraja bu: Bazaviy yapon tilini tushunish.**

**1)Reading (o`qish):**

Kandji va asosiy lug`atda mavjud so`zlardan tuzilgan kundalik mavzularga bag`ishlangan parchalarni o`qish va tushunish.

**2)Language knowledge (til bilish):**

So`z boyligi (vocabulary/grammer) (lug`at/grammatika)

**3)Listening (tinglab tushunish):**

Nisbatan sekin o`qilgan va kundalik hayotda uchraydigan mavzulardagi suhbatlarni tushunish.

**Vaqt (daqqaq):** Reading – 60, language knowledge uchun 30, listening – 35.

**Baholash (ball):** Reading va language knowledge uchun 120, o`tish bali – 38, listening – 60, o`tish bali – 19. Jami – 180 ball, daraja uchun umumiy o`tish bali – 90.

**N5 daraja bu: Yapon tilining ayrim asosiy tushunchalarini bilish.**

**1)Reading (o`qish):**

Xiragana, katakana, bazoviy kandjida yozilgan jumla, gaplarni o`qish va tushunish.

**2)Language knowledge (til bilish):**

So`z boyligi (vocabulary-lug`at)

**3)Listening (tinglab tushunish):**

Kundalik hayotda, maktabda muntazam ishlataladigan so`zlashuvlarni sekin aytilgan/o`qilganda tushunish.

**Vaqt (daqqaq):** Reading – 50, language knowledge – 25, listening – 30.

**Baholash (ball):** Reading va language knowledge uchun 120, o`tish bali – 38, listening – 60, o`tish bali – 19. Jami – 180 ball, daraja uchun umumiy o`tish bali – 80.

Yapon tilini bilish hozirgi kunda ko`p imkoniyatlar yaratadi. Dunyoning 3 – iqtisodi bo`lmish Yaponiyada o`qish, ishlash va u yerda orttirilgan tajribalarni yurtimizda tadbiq etish uchun ulkan imkoniyatlarni beradi. Yaponiyaga sayohat qilish istagida bo`lganlar uchun ham bu juda foydali.